





TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI



12-dekabr 2023 yil



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ
XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH
VA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**mavzusidagi
Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI

Buxoro, 2023-yil 12-dekabr

BUXORO – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ
XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH
VA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**mavzusidagi
Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI

Buxoro, 2023-yil 12-dekabr

BUXORO – 2023

*“Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda yo‘lga qo‘ymas
ekanmiz, sohada rivojlanish bo‘lmaydi”*

*Shavkat Mirziyoev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 27 apreldagi 39-son bayoni ijrosi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘iga muvofiq tashkil etilmoqda.

Tashkiliy qo‘mita: O.X.Xamidov, T.H.Rasulov, H.T.Artikova, S.B.Bo‘riyev, O.R.Umarov, F.X.Jumaev, R.Yunusov, O.B.Sharipov, Sh.Sh.Nafetdinov, Sh.X.To‘xtaev, A.A.Ilyasov, S.M.Nazarova.

4. Abdalova G.N, Rahimov A.H Kuzgi bug'doydan so'ng takroriy ekinlar ekish va mahalliy o'g'itlarni g'o'zada qo'llashning iqtisodiy samaradorligi. Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari. 1-qism. Maqolalar to'plami. Toshkent-2017, 288-291 betro
5. Baxramov S., Mukarramov U. Haydov chuqurligining almashlab ekiladigan o'simliklarga ta'siri. Tuproqni ishlash va almashlab ekish. Toshkent-1992, 8-114 bet.

UO'T 631.635

Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligini tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlari

R.Yunusov, F.A.Ganiyeva

Buxoro davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati Buxoro tuman Bog'ikalon MFY hududidagi MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligi tuproqlarining agrokimyoviy xossa-xususiyatlari keltirilgan. Pakana olma bog'larida tuproq tarkibidagi gumus, tuproq tipi, anion-kationlar, quruq qoldiq va tuzlar yig'indisi atroflicha agrokimyoviy tahlillari berilgan.

Kalit so'zlar: bog'dorchilik fermer xo'jaligi, tuproq, agrokimyoviy xossa va xususiyatlari, gumus, azot, fosfor va kaliy miqdori, sho'rланish tipi va darajasi, anion-kation, quruq qoldiq, tuzlar yig'indisi.

Kirish. Buxoro viloyati Buxoro tumanida sug'oriladigan tuproqlar dehqonchilik qilish maqsadida bir necha asrdan buyon o'zlashtirib, o'zlariga xos agroirrigatsion qatlamlardan iborat. Agroirrigatsion qatlam ayrim maydonlarda 2.5-3.0 mm ni tashkil etib, tuproq kesmasida bo'z rangli har xil holatda zichlangan, namlangan, yengil va o'rta soz bo'lib, morfologik fizikaviy, kimyoviy xossalari mineralogik va boshqa xossalari tomonidan zonal yoki mintaqaviy tuproqlardan keskin farq qiladi. Biroq O'zbekistonda, shu jumladan Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarining klassifikatsiyasini suv rejimiga qarab ularni irrigatsion avtomorf, o'tuvchi va irrigatsion gidromorf tuproqlarga taqsimlanishi yoki ajratilishi ko'pgina olimlar ma'lumotlari bo'yicha tuproqlar paydo bo'lish jarayonlarning ichki mexanizmlari to'la ifodalanmaydi.

Sug'oriladigan yerlarning asosiy maydoni Zarafshon deltasida joylashgan bo'lib, dehqonchilik qilib kelinmoqda. Mazkur relief shakllarining ko'rinishi va tuzilishi jihatdan past tekisliklardan to'lqinsimon a kosasimon antropogen landshaftlardan tashkil topgan. Bu o'zaro terassalar bir – biri bilan Zarafshon daryosining eski irmoqlari bilan ajralgan bo'lib, farq qiladi.

Material va metodika. Buxoro viloyati Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligining tuprog'i qadimdan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproq ho'chil bo'lish jarayonida yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari ona jins, relefi, sizot suvlari va boshqalar eng asosiylaridan biri agroirrigatsion yotqiziqning sug'oriladigan dalalarida yetilishiga bevosita bog'liqdir. Chunki tuproq profilida yangi allyuvial birikmalarning to'planishi natijasida antropogen tuproq hosil bo'lishi biologik jarayonlarni sifat va miqdor jihatdan o'zgarishiga olib keladi.

Shu sababli Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligidagi tuproqlar guruhlaridan morfologik tuzilishi xossalari va xususiyatlari bilan keskin farq qiladi, bu esa ularning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini ko'paytirish ishlarini maqsadli va atroflicha bajarilishi uchun sug'oriladigan tuproqlarning xossa va xususiyatlarini, shuningdek, suv, fizik, ozuqa rejimlarini yangi olingan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar bilan boyitish talabga muvofiq hisoblanadi.

Tajriba natijalari. Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligidagi tuproqlar agrokimyoviy tahlildan o'tkazilganda quyidagi natijalar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligi tuproqlarining agrokimyoviy xossalari tasnifi.

Kesma	CHuqur-ligi sm	Ishqoriylik		Cl		SO ₄		Ca		Mg	
		um.HCO ₃ %	um.HCO ₃ ml	%	ml. ekv	%	ml.ekv	%	ml.ekv	%	ml.ekv
A	0-32	0.024	0.40	0.018	0.49	0.080	1.67	0.022	1.10	0.005	0.40
B	32-62	0.038	0.62	0.014	0.39	0.050	1.04	0.016	0.80	0.006	0.49
C	62-85	0.029	0.48	0.018	0.49	0.051	1.03	0.015	0.75	0.007	0.54

sizot suvi	90sm	0.195	3.20	0.175	4.99	0.400	8.33	0.5	7.49	0.012	5.14
Er osti suvi	10m	0.188	3.08	0.315	8.88	0.340	7.08	0.136	6.29	0.072	5.93

Intensiv pakana olma bog'lardan olingan tuproqlar namunalari "O'zdaverloyiha" instituti "Buxoro viloyat yerloyiha hududiy bo'linmasi" laboratoriyasida agrokimyoviy tahlillardan o'tkazildi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, natijada tuproqlarning chuqurligi bilan tuproqdagi agrokimyoviy xossalarni o'zgarishi hamda chuqurlik oshishi bilan bu ko'rsatkich keskin kamayib boradi.

Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligida qadimdan sug'oridadigan tuproqlardagi mineral elementlarini olingan kesmalardan chuqurlik oshishi bilan ozuqa elementlarning kamayishi kuzatildi.

2-jadval

MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligi tuproqlarida ozuqa elementlarining miqdori

kesma	Chuqurligi, sm	Gumus, %	R ₂ O ₅ , mg/kg	K ₂ O, mg/kg
A	0-32	0.7708	15.0	171.0
V	32-62	0.7520	14.0	214.3
S	62-85	0.7332	13.0	195.0

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu aniq bo'ldiki, Buxoro tuman Bog'i Kalon MFY hududidagi MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida yetishtiriladigan intensiv pakana olma bog'lari tuproqlarining agrokimyoviy xossalari o'rta ko'rsatkichga egadir. SHuni alohida qayd etish lozimki, 0-85sm chuqurlikda gumus miqdori 0.7332-0.7708%ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich qadimdan sug'oriladigan tuproqlar uchun past ko'rsatkich hisoblanadi, fosfor-13.0-15.0mg/kg va kaliy miqdori esa 171.0-214.3mg/kgni tashkil qiladi.

Ushbu intensiv pakana olma bog'larining tuproqlari sho'rlanish tipi va darajasi ko'rsatkichlari 3-jadvalda bayon etilgan.

3-jadval

MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligi tuproqlarini sho'rlanish tipi va darajasi

kesma	chuqurligi, sm	sho'rlanish tipi	SHo'rlanish darajasi
A	0-32	Xlorli sulfat	Kam sho'rlangan
V	32-62	Xlorli sulfat	Kam sho'rlangan
S	62-85	Xlorli sulfat	Kam sho'rlangan
Sizot suvi	90sm	Xlorli sulfat	Kam sho'rlangan
Er osti suvi	10m	xlorli	Kam sho'rlangan

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligini tuprog'i tipi xlorli sulfat hisoblanib, sho'rlanish darajasi esa kam sho'rlangan tuproqlar toifasiga kiradi. 2020-2023 yillar davomida MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligini qadimdan sug'oriladigan allyuvial tuproqlarida pakana intensiv olma va nok navlari parvarish qilinmoqda. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, amal (vegetatsiya) davrida daraxtlar tomchilatib usulida sug'orilgan. Sug'orishni kunaro muddatda o'tkazilgan suv miqdori 2-3martaga tejaldi.

Mazkur xo'jalik tuproqlarining rN muhiti shkalasi 7.69-8.19 bo'lib, muhit esa kuchsiz ishqoriy hisoblanadi va bu holat intensiv bog'larda olmani pakana vegetativ payvandtaglarda o'sish, rivojlanish va mo'l hosil berishga imkoniyat yaratiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qadimdan sug'oriladigan allyuvial tuproqlarini yetarli darajada organik o'g'itlar bilan ta'minlash muhim agrotexnik omil hisoblanadi. Ana shunda mavjud zamonaviy resurslardan samarali foydalangan holda yuqori hosil beradigan intensiv olma va nok navlarini parvarishlashda tuproqning unumdorligini saqlab qolish va oshirishga imkoniyat yaratiladi. SHuningdek, yuqorida keltirilgan ilmiy-tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, qadimdan sug'oriladigan allyuvial tuproqlarni unumdorligini oshirish va saqlash hamda mevali intensiv pakana M-9 payvandtaglarga ulangan olma daraxtlariga to'g'ri shakl berish, zamonaviy resurstejamkor tomchilatib sug'orish usulini qo'llash, olma va nok payvandtaglariga ahamiyat berish katta ahamiyatga ega bo'lib, intensiv bog'larda esa hosildorligini oshishi hamda meva sifat ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilashga olib keladi. Pirovard natijada meva yetishtirishni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusov R., Akramova P., Qurbonov R. Buxoro tuman sug'oriladigan tuproqlarining tasnifi. Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar. Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. Buxoro 2020, 17-18dekabr, 188-189bet.
2. Aripov A.U., Aripov A.A. Urug'lik intensiv meva bog'lari. T., SHarq, 2013y, 156b.
3. Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5643
4. Ganieva F.A., Yunusov R. Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmozlarda o'sish va hosildorlikning nav-payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi. Monografiya. B.Durdon, 2021y, 102b.
5. Ganieva F.A., Yunusov R., Rost i razvitie vegetativno-razmnozhemqx podvoev yablona v zavisimosti ot plotnosti posadki. Stolitsa nauki., M., 2021.
6. Ganieva F.A., Yunusov R., ECONOMICAL INNOVATIVE BASIS FOR THE CARE OF INTENSIVE STUNTED APPLE VARIETIES. AJMR. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> Vol 10, Issue 6, June 2021
7. F.A. Ganiyeva*. Apple tree productivity depending on planting density and rootstock variety combinations. E3S Web of Conferences 389, 03014 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338903014> UESF-2023

TUPROQQA ISHLOV BERISH VAZIFALARI TAHLILI

Tursunova Xilola Shuxratjon qizi

Farg'ona politexnika instituti,

Tuproq qatlamiga ishlov berish almashlab ekish jarayonlarining asosiy stimulyatori hisoblanadi. To'g'ri ishlab chiqilgan o'stirish tizimi, xususan, erning namlik bilan ta'minlanishi va aeratsiyasini yaxshilaydi, shuningdek, foydali mikroorganizmlarning faollashishiga yordam beradi. Tuproqni o'stirishning zamonaviy usullari an'anaviy tuproq ishlov berish elementlarini va yangi texnologiyalarni o'zida mujassam etgan, ammo har bir holatda ulardan foydalanishda tashqi mikroiklim sharoitlari va o'ziga xos o'simliklarga qo'yiladigan talablarni ham hisobga olish kerak.



Yerni qayta ishlash

Agrotexnika vositalari yordamida qishloq xo'jaligi korxonasi yoki fermer o'z tomorqasida madaniy o'simliklarning rivojlanishi nuqtai nazaridan tuproqda qulay sharoit yaratish jarayonini tashkil qiladi. Mexanik ishlov berishning afzalliklarida ilmiy sabab. Qulay ta'sir unumdor qatlamga ham, o'simliklarga ham bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda - biologik, fizik va kimyoviy darajada ta'sir qiladi. Tuproq qoplamidagi tarkibiy o'zgarishlar orqali erishiladigan harorat va namlik rejimini tartibga solish fundamental ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi qurollarining o'simliklarning rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'siriga misol sifatida tuproqqa ishlov berishning turli xil chuqurlikdagi usullarini keltirish mumkin. Ushbu tizimdan intensiv foydalanish bilan kastor loviya hosildorligiga ta'siri ijobiydir. Bu ekinning eng yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlari xususiy ko'rsatkichlar bo'yicha 1,25-1,28 t/ga ga to'g'ri keladi. Albatta, biz bunday usullarning universal qo'llanilishi haqida gapirmayapmiz, chunki har bir holatda mexanik ta'sir turli xil ta'sirga ega. Shu sababli, o'simliklarning mavsumiy holati va o'g'itlarni qo'llash dasturini hisobga olgan holda ko'p bosqichli qayta ishlash tizimlari shakllantirilmoqda.

MUNDARIJA

О.Х.Хамидов. Сўз боши.....	3
I Sho'BA. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH, EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH, SIFATINI VAHOLASH HAMDA TUPROQ XARITASINI TUZISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	5
Қурвантаев Р., Ҳакимова Н.Х., Вафоев Б.Б., Болтаев М.И. ЗАРАФШОН ВОҲАСИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИНИНГ КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИ	5
Х.Т.Артикова. С.Р. Саидмуродова. БУХОРО ВИЛОЯТИДА ВУЖУДГА КЕЛГАН ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ	8
Р.Қурвантаев, С.М.Назарова, О.Ш.Ҳакимова. СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРНИНГ АГРОФИЗИКАВИЙ ҲОЛАТИ	10
Қурпаяниди К.И. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД	12
Қурпаяниди К.И., Михайлов А.Б. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В УПРАВЛЕНИИ ЗЕМЕЛЬНЫМИ РЕСУРСАМИ: ПРОГНОЗЫ И ПЛАНЫ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	13
Xomidov Voxidjon Obidovich. Ichimlik suvini tejash uchun innovatsion yondashuv	16
Idrisov X.A, Atabayeva X.N. O'TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN MOSH (Phaseolus aureus Piper) NAVLARINI BARG RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	17
I.X.Turdiboyev, K.N. Xolmatxonova. SHO'RLANGAN TUPROQLARLAR VA ULARNING TARQALISHI	19
I.X.Turdiboyev. TUPROQ HOSIL BO'LISHINING BIOLOGIK OMILLARI VA TUPROQNING ORGANIK QISMI	21
Medatov Rustamjon Xoshimjonovich., Shuxratov Otabek Alisher o'g'li. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLARNING TAHLILI.....	23
Idrisov X.A, Atabayeva X.N. O'TLOQI BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH (Phaseolus aureus Piper) NAVLARIDA QURUQ MODDA SHAKLLANISHIGA O'RGANILGAN AGROOMILLARNING TA'SIRI	25
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., Ibragimov O'tkir Murodovich., Xo'jaqulov Sherzod Baxtiyorovich., Musirmonqulov O'tkir Umirqulovich., Mirboboyev Mirvaqqos O'tkirovich. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA DUKKALI EKINLARNING AHAMIYATI	27
Tursunov A.A, Ergasheva N.X, Zahridinov I.I. QO'SH EKINLAR PARVARISHLASHNING TUPROQ HAJM OG'IRLIGIGA TA'SIRI	29
Sobirov Anvarjon Odilovich. YER RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI.....	30
Akramov Shohruh Shuhratjon o'g'li. TUPROQQA ISHLOV BERISH USULLARI VA TAKRORIY EKINLARNI KUZGI BUG'DOYNING DON HOSILDORLIGIGA TA'SIRI	33
R.Yunusov, F.A.Ganiyeva. Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaligini tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlari	35
Tursunova Xilola Shuxratjon qizi. TUPROQQA ISHLOV BERISH VAZIFALARI TAHLILI	37
Xakimova Kamola Raximjonovna., Mavlyankulova Sitora Zuxriddinovna. SUG'ORISHNING O'SIMLIKLARGA ZARARI VA TUPROQDAGI GALOGEOKIMYOVIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI	39
Abdukadirova Muxarram Arabboyevna., Rejapov Burxonidin Maxamadjon O'g'li. TUPROQNI PAYDO QILUVCHI OMILLAR.....	41
Axunova M.X. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION ECHIM: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA	43
Qosimov Maxmud., Dexkonova Qamarzoda Baxodir Qizi. SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI, UNI YAXSHILASH VA TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	45
M. M. Ulugboboyeva. TUPROQLARNING O'SIMLIKLARNI OZIQLANISHI BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI	46
Mirboboyeva Gulhayo. TUPROQ MEXANIK FRAKSIYALARINING MINERALOGIK, KIMYOVIY TARKIBI, FIZIK XOSSALARINI O'RGANISH	48



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



SERTIFIKAT

“TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA O‘SIMLIK LARNI HIMOYA
QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR”

mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanida

YUNUSOV RUSTAM _____ ga

faol ishtiroki uchun berildi

Rektor



O.X. Xamidov

12-dekabr 2023-yil
Buxoro shahri